

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA  
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI PHD.03/30.09.2023. PED.173.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**URAKOV SHERZOD RAXMONOVICH**

**OLIY TA'LIM MUASSASALARI PROFESSOR-O'QITUVCHILARINING  
KASBIY FAOLIYATINI BAHOLASHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK  
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'lilotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertasiyasi avtoreferati mundarijasi****Оглавление автореферата диссертации доктора педагогических наук (DSc)****Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Pedagogy (DSc)****Urakov Sherzod Raxmonovich**

Oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini baholashning tashkiliy-pedagogik mexanizmini takomillashtirish..... 3

**Ураков Шерзод Рахмонович**

Совершенствование организационно-педагогического механизма оценки профессиональной деятельности профессорско-преподавательского состава высших учебных заведений..... 29

**Urakov Sherzod Raxmonovich**

Improving the organizational and pedagogical mechanism for assessing the professional activities of the teaching staff of higher educational institutions..... 57

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 61

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA  
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI PHD.03/30.09.2023. PED.173.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**URAKOV SHERZOD RAXMONOVICH**

**OLIY TA'LIM MUASSASALARI PROFESSOR-O'QITUVCHILARINING  
KASBIY FAOLIYATINI BAHOLASHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK  
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'lilotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.DSc/Ped383 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.bimm.uz](http://www.bimm.uz)) va "ZiyoNET" Axborot-ta'lif portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Kodirov Mumin Kodirovich**

fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Abdullahayeva Shaxzoda Abdullayevna**

pedagogika fanlari doktori, professor

**Mardonov Shukrullo Qo'ldoshevich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Asqarov Abror Davlatmirzayevich**  
pedagogika fanlari doktori(DSc), dotsent

**Yetakechi tashkilot:**

**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Oliy ta'lif tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD 03/30.09.2023.Ped.173.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir marjalik Ilmiy kengashning 2024-yil 22-dekabr kuni soat 11:00-dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy. Tel: (+99871) 202-01-20; faks: (+99871) 202-01-21, e-mail: info@bimm.uz)

Dissertatsiya bilan Oliy ta'lif tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (10 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy. Tel: (+99871) 203-01-28

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "14-dekabr" kuni tarqatildi.  
(2024-yil "14-dekabr" dagi 10 - raqamli reyestr bayonnomasi)



**U.Sh.Begimkulov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi,  
pedagogika fanlari doktori, professor

**A.Djurayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash kotibi, pedagogika fanlari  
bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ya.O.Ismadiyarov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
pedagogika fanlari doktori, professor

## **KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertasiya mavzusining dolzarbliji va zarurati.** Jahonda pedagogik kadrlarning kasbiy salohiyatini jamiyat taraqqiyotining ustuvor indikatorlari asosida baholash va takomillashtirish inson kapitalini rivojlantirish hamda ta’lim sifatini ta’minlashning muhim omili sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, milliy va xalqaro reytinglar agentliklari tomonidan o’tkazilgan reyting tadqiqotlari tahliliga ko‘ra, oliv ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining faoliyat samaradorligi ustuvor mezonlar asosida e’tirof etilmoxda. Shu nuqtai nazardan jamiyatning tezkor rivojlanishi, ilmiy-texnik va texnogen taraqqiyotning shaxs intellektuallik darajasiga ta’sirini belgilovchi omillarini aniqlash, oliv ta’lim muassasalarida professor-o‘qituvchilar faoliyatini baholashning yangi konsepsiyalarni ilmiy asoslash muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo miqyosida oliv ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilar mehnatini baholash tizimini ishlab chiqish, professor-o‘qituvchi tarkibini tanlashga yangi yondashuvlarni aniqlash, ta’lim sifatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni belgilash bo‘yicha izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, ta’lim jarayonining sifat va samaradorligiga qaratilgan hamkorlik yondashuv asosida boshqarish, professor-o‘qituvchilar faoliyati va o‘quv jarayoniga tayyoragarlik darajasi, o‘qituvchining kommunikativ kompetensiyalari, xulq-atvor madaniyati, ta’lim jarayonida kasbiy obrazni yaratishga qaratilgan tadqiqotlar natijasi muhim ahamiyatga ega. Shuning bilan birgalikda, oliv ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining kasbiy faoliyati mezonlarini pedagogik kompetentlik ko‘rsatkichlari asosida aniqlashtirish, shuningdek ularning faoliyatini diagnostika qilishning tashkiliy-pedagogik mexanizmlarini ilmiy asoslash zarurati yuzaga kelmoqda.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan oliv ta’lim tizimini yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Professor-o‘qituvchilarining faoliyatini, bilimini va pedagogik ko‘nikmasini baholashning zamonaviy tizimi mavjud emasligi ta’lim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotganligi e’tirof etilib, “Ta’lim sifati, professor-o‘qituvchilarining bilimi va pedagogik mahorati, talabalarga yaratilgan shart-sharoitlar ustidan tizimli ravishda monitoring o‘rnatish”<sup>1</sup> vazifalari belgilangan. Bu borada oliv ta’lim muassasalarida professor-o‘qituvchilar kasbiy faoliyatini baholashning tashkiliy-pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish, xususan, ta’lim sifatini oshirish va zamonaviy kadrlar tayyorlashda o‘qituvchi faoliyatiga bog‘liq bo‘lgan mezon va ko‘rsatkichlarni aniqlash, kasbiy faoliyati natijadorligini ta’minlashga yo‘naltirilgan ustuvor indikatorlarni ishlab chiqish hamda ularning diagnostika qilishning modifikatsiyalangan metodikalarini joriy qilishga qaratilgan tadqiqotlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son qarori. <https://lex.uz/docs/3765586>

va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son "Pedagogik ta'lif sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarorlari, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 467-son "Oliy ta'lif muassasalarini reytingini aniqlash tartibinitakomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son "Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mavzuga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi.** Dunyodagi nufuzli oliygohlarda, xususan, Massachuset texnologiya instituti, (Massachusetts Institute of Technology)<sup>2</sup>, Stanford universiteti (Stanford University)<sup>3</sup>, Kaliforniya texnologiya instituti (California Institute of Technology (Caltech)<sup>4</sup>, Chikago universiteti (University of Chicago)<sup>5</sup>, Oksford universiteti<sup>6</sup>, Kembridj universiteti<sup>7</sup>, (Buyuk Britaniya), Singapur milliy universiteti (National University of Singapore (NUS)<sup>8</sup>, Pekin universiteti (Xitoy)<sup>9</sup>, Tokio universiteti (Yaponiya)<sup>10</sup>, Verona universiteti (Italiya)<sup>11</sup>, Haifa universiteti (Isroil)<sup>12</sup>, Javoharlal Neru universiteti (Jawaharlal Nehru University)<sup>13</sup>, Venger davlat ta'lif va tadqiqot instituti (Vengriya)<sup>14</sup>, M.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti<sup>15</sup>, Sankt-Peterburg davlat universiteti (Rossiya)<sup>16</sup> kabi yetakchi markaz va oliy ta'lif muassasalarida professor-o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini baholashning tashkiliy-pedagogik mexanizmlarini o'rganishga oid ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, AQShda Oliy ta'lif tizimini samaradorligini oshirish markazining ochilishi (The

<sup>2</sup> <https://urop.mit.edu/>

<sup>3</sup> <https://facts.stanford.edu/>

<sup>4</sup> <https://www.caltech.edu/>

<sup>5</sup> <https://www.uchicago.edu/>

<sup>6</sup> <https://www.ox.ac.uk/>

<sup>7</sup> <https://www.cam.ac.uk/>

<sup>8</sup> <https://nus.edu.sg/>

<sup>9</sup> <https://english.pku.edu.cn/>

<sup>10</sup> <https://www.u-tokyo.ac.jp/en/>

<sup>11</sup> <https://www.univr.it/it/international>

<sup>12</sup> <https://www.haifa.ac.il/>

<sup>13</sup> <https://www.jnu.ac.in/main/>

<sup>14</sup> <https://ofi.oh.gov.hu/>

<sup>15</sup> <https://msu.ru/>

<sup>16</sup> <https://spbu.ru/>

Center for Measuring University Performance)<sup>17</sup> bu sohadagi tadqiqotlarni yanada jonlantirishga xizmat qilmoqda.

Oliy ta’lim jarayonini sifat va samaradorlikka qaratilgan hamkorlik yondashuv asosida boshqarish, professor-o‘qituvchilar faoliyati va o‘quv jarayoniga tayyorgarlik darajasi, o‘qituvchining kommunikativ komponentensiyalari, xulq-atvor madaniyatni, ta’lim jarayonida kasbiy obrazni yaratish bo‘yicha tadqiqot olib borilmoqda (Oliy ta’lim tizimini samaradorligini oshirish markazi (AQSh)<sup>18</sup>; o‘qituvchilarni kasbiy baholashning eng muhim sharti ularning faoliyatini baholab borish, ta’lim sifati, o‘qituvchining professionalizmiga doir tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish modellari ishlab chiqilgan (AQShning Massachuset texnologiya instituti); oliy ta’lim tizimida ta’lim sifatini boshqarishning muhim vazifalari yoritilgan (Stanford universiteti)<sup>19</sup>; oliy ta’lim tizimida kasbiy faoliyatni baholash to‘g‘risida konsepsiya qabul qilingan (Kaliforniya universiteti, Chikago universiteti<sup>20</sup>, Oksford universiteti); professor-o‘qituvchilarni kasbiy baholash va ularni lavozimga ko‘tarish, ilmiy darajasi imkoniyatlari aniqlanib, tahlili amalga oshirilgan (Oksford universiteti, Kembrij universiteti)<sup>21</sup>; o‘qituvchilarni kasbiy baholash talabalar tomonidan aniqlanishi, uning kelajakdagi muvaffaqiyati uchun o‘qituvchini rag‘batlantirishi to‘g‘risida qarorlar qabul qilingan (Singapur milliy universiteti)<sup>22</sup>; o‘qituvchilarni kasbiy baholashni rag‘batlantirish bo‘yicha dastur tashkil qilingan (Isroil, Hindiston); o‘qituvchini kasbiy baholash, birinchidan, o‘z-o‘zini baholash, ikkinchidan, talabaning baholashi bilan bog‘liqligi bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan (Tokio universiteti, Yaponiya); oliy ta’limda kasbiy sifatni oshirish uchun uzviylik va uzlusizlikni ta’minalashning psixologik-pedagogik mexanizmlari takomillashtirilgan (Moskva davlat universiteti); o‘qituvchining muvaffaqiyati o‘quvchining natijasi bilan o‘lchanishiga oid tadqiqot ishlari bajarilgan (Sankt-Peterburg davlat universiteti (Rossiya).

Dunyo mamlakatlarining ayrim oliy ta’lim tizimida professor-o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini baholash yuqori davlat organi tomonidan ma’lum bir standart asosida belgilanadi. Oliy ta’lim tizimining faoliyati va samaradorligini baholash muammosini o‘rganish yuzasidan tadqiqotchilar tomonidan qiyosiy tahlil olib borilmoqda, oliy ta’lim muassasalar o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini o‘rganish, oliy ta’limda innovatsiya va innovatsiyalarni joriy etishni takomillashtirish, ta’lim sifatini boshqarishning zamonaviy tizimi doirasida o‘quv jarayoni samaradorligiga qo‘yiladigan yuqori ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy talablarni hisobga olgan holda professor-o‘qituvchilarning kasbiy faoliyati samaradorligini baholash tizimini modernizatsiya qilish mezonlarini aniqlashtirish, professor-o‘qituvchilar kasbiy faoliyatining aniqlangan tarkibiy qismlarini kvalimetrik baholashni yaratish va amalga oshirish vazifalarini takomillashtirish, motivatsiyani oshirishning interaktiv dasturiy vositalaridan foydalanishning metodik tizimini ishlab chiqish, o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini rivojlantirish zarurati yuzaga kelmoqda.

<sup>17</sup> <https://mupcenter.org/>

<sup>18</sup> <https://www.cleareresult.com/>

<sup>19</sup> <https://www.stanford.edu/>

<sup>20</sup> <https://www.uchicago.edu/>

<sup>21</sup> <https://www.cam.ac.uk/>

<sup>22</sup> <https://nus.edu.sg/>

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** O‘qituvchining kasbiy tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablar, bu kasb egalarining ulug‘lanishi Imom Ismoil al-Buxoriy, Yusuf Xos Hojib, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Jaloliddin Davoniy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy kabi Sharq mutafakkirlarining asarlarida o‘z ifodasini topgan.

Samarqand davlat universitetida O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2019-yil 20-fevraldaggi 166сонли buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash” loyihasining Akademik innovatsiyalar fondi tomonidan moliyalashtirilgan Akademik innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash fondining AIF-2/13-raqamli “O‘zbekiston Oliy ta’lim muassasalarida o‘qituvchi faoliyatini baholash” mavzusidagi loyiha bajarilgan. Mazkur loyiha doirasida xorijiy oliy ta’lim muassasalari (Turkiyaning Istambul, Mugla universitetlari, Qozog‘istonning Janubiy Qozog‘iston universiteti)ning tajribalari o‘rganilgan (J.Eltazarov, M.Qodirov).

Respublikamizda S.Husenov, R.Haydarov, X.Xushvaqtov, M.Qodirov, B.Usmonov, J.Eltazarov, A.Askarovlar tomonidan professor-o‘qituvchilarining dars jarayonidagi faoliyatini baholash, oliy ta’lim xizmatlari sifatini oshirish asosida inson kapitalini rivojlantirish, shuningdek professor-o‘qituvchilarining bilim saviyasi va madaniyati, pedagogik mahorati, talabalarni qo‘llab-quvvatlashi va ularning bilimlarini shaffof va adolat bilan baholashda latent omillar va ularni ifodalaydigan indikatorlari aniqlangan, inson kapitalining shakllanishida ta’lim va ilm-fanning roli o‘rganilgan, professor-o‘qituvchilar faoliyati samaradorligini baholashning integrallashgan texnologiyasi ishlab chiqilgan.

MDH olimlaridan T.Ye.Isayeva, M.A.Borovskaya, A.A.Verbiskiy, V.D.Shadrikova, M.Ye.In’ikovlar tomonidan oliy ta’lim tizimi subyektlarining kompetentligi, ilmiy-pedagogik kadrlarning faoliyat motivlarini rivojlantirish, oliy ta’lim o‘qituvchisi islohotlarning bosh subyekti ekanligini asoslash, pedagogik kadrlarning malaka darajasini baholash metodikalarini takomillashtirish muammolari o‘rganilgan.

Xorijiy olimlar E.Velsh, B.M.Kehm, B.A.Weinberg, M.F.Beltonlarning tadqiqotlari oliy ta’lim muassasalarining xalqaro reytinglardagi ishtiroti, oliy ta’limni diversifikatsiyalash, oliy ta’limda o‘qituvchilarining rolini oshirish, oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilari kasbiy faoliyatini takomillashtirish strategiyalari va rivojlantirish istiqbollari muammolariga bag‘ishlangan.

Biz tomonimizdan o‘rganilgan adabiyotlarning tahlili shundan dalolat beradiki, oliy ta’lim muassasalarida professor-o‘qituvchilar faoliyatini baholashda turli indikatorlar va tashxis metodikalari ishlab chiqilgan. Lekin respublikamizda oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari kasbiy faoliyatini baholashning ta’lim iste’molchisi maqsadlariga mos keladigan mezonlar, ko‘rsatkichlar va indikatorlar, shuningdek ularni tashxis qilishning strategik tizimi, kasbiy professionalligini rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash muammolari yetarli darajada o‘rganimagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat universiteti Ilmiy tadqiqotlar rejasining “Ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va

ilmiy salohiyatni oshirishga yo‘naltirilgan kompleks chora-tadbirlar dasturi” doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini baholashning tashkiliy-pedagogik mexanizmini takomillashtirishga doir ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirishning omillarini tahlil qilish, ta’lim jarayonlarini boshqarish nazariyalari hamda professor-o‘qituvchilar faoliyatini takomillashtirish yo‘nalishlari va pedagogik faoliyat funksiyalariga oid ko‘rsatkichlarni aniqlash;

xorijiy OTMlardagi o‘qituvchilar kasbiy faoliyatini baholash bo‘yicha ilg‘or tajribalarni o‘rganish, oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini baholashning mezonlari va tashkiliy-pedagogik muammolarini aniqlashtirish;

professor-o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatni baholashning akademi aspektga bog’liq omillarini hamda kasbiy faoliyatning pedagogik-psixologik diagnostik bosqichlarini aniqlashtirish;

kompetensiyaviy yondashuv asosida oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini takomillashtirish strategiyasini ishlab chiqish;

oliy ta’lim muassasalarida o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini baholash metodologiyasi va mexanizmlarini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini tashxis qilish va baholash jarayoni tanlanib, tajriba-sinov ishlariga Samarqand davlat universiteti, Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali hamda Navoiy davlat pedagogika institutining 862 nafar talabalari jalg‘ etilgan.

**Tadqiqotning predmetini** oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini tashxis qilish va baholashning mazmuni hamda refleksiv baholash mexanizmlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada o‘quv-me’yoriy hujjatlar, darslik va o‘quv-metodik adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish; suhbat, kuzatish, anketa, test, loyihalash, modellashtirish, ekspert baholash, prognoztiqa va tashxislash, pedagogik tajriba-sinov, psixodiagnostika, tadqiqot natijalarini matematik-statistik qayta ishslash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

oliy ta’lim muassasalarida kasbiy pedagogik faoliyat funksiyalari mazmuni o‘qituvchi shaxsi, faoliyati, kasbiy sifatlariga yo‘naltirilgan yondashuvlarga asoslangan kvalimetrik jarayonni funksional modellashtirishning mantiqiy tuzilmasi produktivligi sababli talabalarning qoniqish kategoriyasiga ustuvorlik berish orqali aniqlashtirilgan;

oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining kasbiy pedagogik faoliyatini baholashning qadriyatli, akmeologik, refleksiv mezonlari ta’lim tashkilotining mavqeini belgilab beradigan akademik aspekt bilan ta’lim muhitidan

qoniqish darajasi o‘rtasidagi korrelyatsiyaning validligi, akmeologik strategiya hamda motivatsion-rivojlanтирувчи refleksiyaga ko‘ra aniqlashtirilgan;

oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvshilarining kasbiy faoliyatini baholash omillari talabalarining iste’molshi sifatida baholash pozitsiyasidan kelib shiqib akademik aspektga asoslangan davriy baholash imkoniyatlarini internal va eksternal ta’sir darajasi professional harakat elementlarining analistik tavsifi ob’ektivligini belgilash asosida takomillashtirilgan;

oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvshilarining kasbiy faoliyatini baholashning nazariy-pedagogik jihatlari mehnat faoliyatiga nisbatan refleksiv va akmeologik pozitsiyaning faoliyat sifatini baholash elementlari bilan nazariy konstrukt hosil qilish imkoniyatlarini pedagogik amaliyot natijalari bilan komparativligiga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

professor-o‘qituvchilarning faoliyatini baholash metodologiyasi kasbiy harakatni baholash natijalari va shaxsiy tajribaga ko‘ra axborotlarni qabul qilish pozitsiyasining istiqbolni bashoratlashda ijobiy va salbiy evristikaning produktogenligi invariantlarini ishlab chiqish orqali takomillashtirilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari:**

professor-o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik faoliyati muntazam va davriy baholash orqali refleksiv takomillashtirishga yo‘naltirilgan anonim baholashning elektron tizimi <http://samdukf.uz/anonim-sorovnom> yaratilgan;

oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilar kasbiy pedagogik faoliyatini baholash metodologiyasi ishlab chiqilgan;

professor-o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini takomillashtirish va ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha iste’molchilarning tashabbuslarini bildirishga sharoit yaratishga yo‘naltirilgan <http://samdukf.uz/tashabbus> elektron platformasi amaliyotga joriy qilingan;

oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun “Umumiy pedagogika” darsligi yaratilgan;

oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilar faoliyatini baholash va refleksiv takomillashtirishning mantiqiy jadvalini hosil qilish dasturi ishlab chiqilib, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligidan ro‘yxatdan o‘tkazilgan (Guvohnoma № DGU 28706, Berilgan sanasi: 02.11.2023 y).

**Tadqiqot natijalarining ishonchiligi** qo‘llanilgan yondashuv tamoyillari, usullar ilmiy-metodik jihatdan asoslanganligi, nazariy ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, muammoga falsafiy, metodologik, psixologik, pedagogik, metodik yondashuvlar hamda OTM professor-o‘qituvchilar kasbiy-pedagogik faoliyatini baholashga doir mahalliy va xorijiy tajribalarga tayanilganligi, keltirilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlarining samaradorligi matematik-statistik metodlar vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

### **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati oliy ta’lim muassasalarida professor-o‘qituvchilarning kasbiy pedagogik faoliyatni baholashga uzviy bog‘liq bo‘lgan ta’lim sifati, ta’limni boshqarishga kognitiv, bixevoiristik hamda faoliyatli yondashuvlarning ahamiyati yoritilganligi; rivojlangan davlatlar OTMlarida professor-o‘qituvchilar o‘qituvchilar faoliyatini baholash tajribasining o‘rganilganligi; professor-o‘qituvchilar

faoliyatini baholash mezonlarining ta’lim natijalari hamda OTM akademik aspekti bilan talabalar qoniqishi o‘rtasidagi statistik bog‘liqlikning aniqlanganligi oliy ta’lim muassasalarida professor-o‘qituvchilar faoliyatining samaradorlik ko‘rsatkichlarini belgilash, professor-o‘qituvchilar faoliyatini takomillashtirishning refleksiv mexanizmlarini boyitishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ilg‘or xorijiy tajribalar asosida OTM professor-o‘qituvchilarini kasbiy pedagogik faoliyatini baholash mexanizmining takomillashtirilganligi, professor-o‘qituvchilarning faoliyatini baholash metodologiyasining ishlab chiqilganligi, professor-o‘qituvchilar kasbiy pedagogik faoliyatini baholashning elektron platformalari yaratilganligi, oliy maktab o‘qituvchisi faoliyatini baholashning aspektlari aniqlanganligi, professor-o‘qituvchilar faoliyatini tashxis qilish va baholashning modifikatsion metodikalari ishlab chiqilganligi, oliy ta’lim muassasalarida professor-o‘qituvchilarni ishga qabul qilish mexanizmlari asosida tezkor, bosqichma-bosqich hamda davriy baholab borish imkoniyati yaratilganligi, professor-o‘qituvchilar faoliyatini baholashning tashkiliy pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Oliy ta’lim muassasalarini professor-o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini baholashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan nazariy va amaliy takliflar asosida:

oliy ta’lim muassasalarida kasbiy pedagogik faoliyat funksiyalari mazmuni o‘qituvchi shaxsi, faoliyati, kasbiy sifatlariga yo‘naltirilgan yondashuvlar asoslangan kvalimetrik jarayonni funksional modellashtirishning mantiqiy tuzilmasi produktivligi sababli talabalarning qoniqish kategoriyasiga ustuvorlik berish orqali aniqlashtirishga oid taklif va tavsiyalardan oliy ta’lim muassasalarini talabalari uchun “Umumiy pedagogika” nomli darslikni ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 9-sentyabrdagi 302-son buyrug‘iga asosan berilgan 302-0605 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada professor-o‘qituvchilarning ta’lim sifatini oshirishga yo‘naltirilgan didaktik jarayonga oid yondashuvlari bo‘yicha kompetentlilik mazmunini aniqlash imkoniyati kengaytirilgan;

oliy ta’lim muassasalarini professor-o‘qituvshilarining kasbiy pedagogik faoliyatini baholashning qadriyatli, akmeologik, refleksiv mezonlari ta’lim tashkilotining mavqeini belgilab beradigan akademik aspekt bilan ta’lim muhitidan qoniqish darajasi o‘rtasidagi korrelyatsiyaning validligi akmeologik strategiya hamda motivatsion-rivojlantiruvchi refleksiyaga ko‘ra aniqlashtirish, oliy ta’lim muassasalarini professor-o‘qituvshilarining kasbiy faoliyatini baholash omillari talabalarning iste’molshi sifatida baholash pozitsiyasidan kelib shiqib akademik aspektga asoslangan davriy baholash imkoniyatlarini internal va eksternal ta’sir darajasi professional harakat elementlarining analitik tavsifi ob’ektivligini belgilash asosida takomillashtirishga oid takliflardan Jahon Bankining “Akademik Innovasiyalar fondi” (AIF)ning “O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida o‘qituvchi faoliyatini baholash” loyihasida belgilangan vazifalarni bajarishda foydalanilgan (Samarqand davlat universitetining 2023-yil 11-iyuldaggi 10-3565-sonli ma’lumotnomasi). Natijada OTMlarda professor-o‘qituvchilar kasbiy-pedagogik faoliyatini baholashning tashkiliy

pedagogik mexanizmlarini aniqlash hamda professor-o‘qituvchilar faoliyatini takomillashtirish yo‘nalishlari aniqlashtirilgan;

Oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvshilarining kasbiy faoliyatini baholashning nazariy-pedagogik jihatlari mehnat faoliyatiga nisbatan refleksiv va akmeologik pozitsiyaning faoliyat sifatini baholash elementlari bilan nazariy konstrukt hosil qilish imkoniyatlarini pedagogik amaliyot natijalari bilan komparativligiga ustuvorlik berish asosida takomillashtirish strategiyasi, professor-o‘qituvshilarining faoliyatini baholash metodologiyasi kasbiy harakatni baholash natijalari va shaxsiy tajribaga ko‘ra axborotlarni qabul qilish pozitsiyasining istiqbolni bashoratlashda ijobiy va salbiy evristikaning produktogenligi invariantlarini ishlab chiqish orqali takomillashtirishga oid takliflardan Jahon Bankining “Akademik Innovasiyalar fondi” (AIF)ning “O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida o‘qituvchi faoliyatini baholash” loyihasida belgilangan vazifalarni bajarishda foydalanilgan (Samarqand davlat universitetining 2023-yil 11-iyuldaggi 10-3565-sonli ma’lumotnomasi). Natijada OTMlarda professor-o‘qituvchilar faoliyatini baholash bo‘yicha so‘rovnomalardan ishlab chiqish hamda so‘rovnomalarning tarkibiy qismlari mazmuniga oid konseptual model ishlab chiqish imkoniyati yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 23 ta ilmiy-uslubiy ishlar, jumladan, 1 ta darslik, 1 ta monografiya, 2 ta uslubiy qo‘llanma, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini e’lon qilish uchun tavsiya etilgan nashrlarda 13 ta maqola, jumladan, 10 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, 4 bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib dissertatsiyaning asosiy matni 208 sahifadan iborat.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida mavzuning dolzarbliji va zarurati asoslangan, xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhlangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ularning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy etilishi, nashr ishlari hamda dissertatsiya tuzilishiga doir ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini baholashning nazariy-metodologik asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik faoliyatini baholash ta’lim sifatini oshirish omili sifati tadqiq etilib, professor-o‘qituvchilar faoliyatini baholash orqali ta’lim sifatini ta’minlashning me’yoriy-huquqiy asoslari, shuningdek professor-o‘qituvchilar kasbiy pedagogik faoliyatini modellashtirish muammolari ilmiy-nazariy manbalarni tahlili asosida yoritilgan.

Tahlillarga ko‘ra jamiyatning, shuningdek ta’lim tizimining taraqqiyoti boshqaruv qarorlarining samaradorligiga bog‘liq. Oliy ta’lim sifatini ta’minlash

muammosi bu tizimli muammo bo‘lib, uni hal qilishda OTM faoliyatining ko‘p yo‘nalishlari harakatga kelishini taqozo etadi. Binobarin taklif etilayotgan yuqori sifatlari ta’limni ta’minalash bo‘yicha faqatgina kompleks yondashuvgina ijobjiy natijalarga va maqsadga erishishga olib kelishi mumkin.

Oliy ta’lim muassasalarini ta’lim faoliyatining kompleks xarakteristikasi deganda 7 ta yo‘nalish bo‘yicha sifat ko‘rsatkichlarini ta’minalash tushuniladi: ta’lim dasturlari sifati; professor-o‘qituvchilar tarkibi sifati; ta’lim oluvchilar sifati; foydalilaniladigan ta’lim texnologiyalari sifati; moliyaviy ta’minot sifati; jarayonlarni boshqarish sifati; rag’batlantirish tizimi.

Professor-o‘qituvchilar tarkibi sifati deganda yuqori darajada o‘qitish tushuniladi. Zamonaviy o‘qituvchi o‘qitayotgan fanini a’lo darajada bilishi, doimiy ravishda kasbiy bilim va malakasini takomillashtirishi, axborot kommunikatsiyasiga oid yuqori darajada kompetentlikka ega bo‘lishi kerak.

Ta’lim sifati mohiyatan keng tushuncha. Ba’zilar ta’lim sifati deganda talabalar o‘zlashtirishining foiz qiymatiga asoslangan kategoriyani tushunishadi; ayrim tadqiqotchilar ta’lim sifatini shaxsning rivojlanish darajasiga tenglashtirishadi; uchinchi toifadagilar ta’lim sifati mazmunida oliy ta’lim muassasasi bitiruvchilarining ijtimoiy hayotga tayyorlik darajasini tushunishadi; to‘rtinchchi toifadagilar ta’lim sifatini talabalarni o‘qitayotgan ilmiy daraja va unvonga ega professor-o‘qituvchilar ulushining darajasi bilan izohlashadi.

Bizningcha, ta’lim sifati – bu ijtimoiy kategoriya bo‘lib, u jamiyatda ta’lim jarayonining holati va natijaviyligini, uni shaxsning fuqarolik, ijtimoiy va kasbiy kompetentligi rivojlanishi va shakllanishida jamiyatning (turli xil ijtimoiy guruhlarning) talablari va kutilgan natijalarga mos kelishini belgilaydi.

Mazkur bobda hozirgi kunda oliy ta’lim tizimida professor-o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini baholashning bir qator dolzarb muammolari aniqlangan. Bunda professor-o‘qituvchilar kasbiy faoliyatini baholash ta’lim sifatining muhim omili bo‘lib, bu jarayonda xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish, sohada sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, uning jozibadorligini oshirish, jahon miqyosidagi raqobatbardoshligini ta’minalash kabi ko‘rsatkichlarga alohida e’tibor qaratish lozim.

Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlashda rivojlangan davlatlar tajribasi tahlil qilindi. Bunda asosan, professor-o‘qituvchilarning malaka va ko‘nikmalari sifati va talabalarning qoniqishi kabi akademik ko‘rsatkichlarga murojaat qilindi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda oliy ta’lim muassasalarida professor-o‘qituvchilar kasbiy faoliyatini baholashda asosan reyting usuli qo‘llanilmoqda. Kasbiy faoliyatni baholashning hozirgi amaliyotdagi bu kabi usullari mukammal emas, chunki u aniq mezonlarga asoslanmagan, shuningdek o‘qituvchilar faoliyatini baholashning yagona tizimi aniqlanmagan. Bugungi kunda oliy ta’limni boshqarishda oliy ta’lim subyektlarining ish sifatiga erishishi va doimiy ravishda takomillashtirib

borishi bo'yicha samarador va ta'sirchan mexanizmlarni tatbiq etishga yetarli darajada e'tibor qaratilmayapti.

Respublikamizdagi OTMlarda professor-o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik faoliyatini baholash, eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash bo'yicha tartib-qoidalar va strategik vazifalar belgilab berilgan.

Oliy pedagogik ta'lismida ta'lismidan jarayonining maqsadi faqatgina bilimlar bilan qurollantirish emas, balki yoshlarni tarbiyalay olish, ijodiy rivojlantirish, bilimlarni faol o'zlashtirishga qodir bo'lgan, kafolatlangan kompetentlikka ega mutaxassisni tayyorlash kabi ta'lismidan natijalari bilan izohlanadi. Bu jarayonlarning natijadorligi professor-o'qituvchilar kasbiy pedagogik faoliyatni samaradorligiga uzviy bog'liq bo'lib, pedagogik faoliyatni funksional modellashtirish orqali aniq tashxis imkoniyati yaratiladi.

Tadqiqotimizda OTM o'qituvchisining kasbiy pedagogik faoliyatini modellashtirishga e'tibor qaratdik (1-rasm). OTM o'qituvchisi kasbiy-pedagogik faoliyati modelini tuzishda har turli xil yondashuvlar bo'lishi mumkin: o'qituvchi shaxsiyati modeli, o'qituvchi faoliyati modeli, kasbiy sifatlari modeli va boshqalar.


Mazkur modelda oliy ta'lismidan muassasalari professor-o'qituvchilarining kasbiy sifatlariga oid asosiy va qo'shimcha funksiyalari tasniflanib, ularga xos ko'rsatkichlar tahlil qilingan. Shuningdek mazkur paragrafda asosiy pedagogik funksiyalardan axborot beruvchi, safarbarlik, tashkilotchilik, konstruktiv, rivojlantiruvchi, yo'naltiruvchi, kommunikativ, gnostik funksiyalar mazmuni o'qituvchi shaxsi, faoliyati, kasbiy sifatlariga yo'naltirilgan yondashuvlarga asoslanib aniqlashtirilgan.

Professor-o'qituvchilarning asosiy pedagogik funksiyalari mazmunidan kelib chiqib kasbiy-pedagogik faoliyatini takomillashtirish jarayonida baholash ushun zarur bo'lgan psixologik, didaktik, uslubiy, tarbiyaviy va kommunikativ asoslar ochib berilgan.

Respublikamizdagi OTMlarda amalda foydalanilayotgan samaradorlikning eng muhim ko'rsatkichlari (KPI) mezonlari tahliliga ko'ra, talabaning ta'lismidan qoniqishini belgilovchi akademik aspektga yetarlicha e'tibor qaratilmagan.

Bugungi kunda barcha ta'lismidan muassasalarida joriy qilingan KPI tizimining funksional vazifalari, asosan, OTMning boshqarish strategiyasiga yo'naltirilmoqda. Xususan, OTMning milliy va xalqaro reytinglar yo'nalishlariga mos keluvchi indikatorlar ustuvorligi belgilanib, professor-o'qituvchining muayyan davrdagi faoliyati mazkur yo'nalishlardagi vazifalarni bajarishga qaratilmoqda. Lekin professor-o'qituvchilarning mutaxassislik bo'yicha bilim, mashg'ulotlarga tayyorgarlik darjasini, ta'lismidan jarayoniga individual yondashuvni hamda pedagogik mahorati va muloqot madaniyati kabi aspeklarni baholash e'tibordan chetda qolmoqda.

Muammoga oid tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, OTMlarda professor-o'qituvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalar sifatini obyektiv tahlil qilish imkoniyatini beradigan kasbiy-pedagogik faoliyatni baholash tizimi mavjud bo'lishi juda muhimdir. Baholash ma'lum bir o'qituvchining mehnatiga baho berishgina emas, balki uning faoliyatidagi kamchiliklarni bartaraf etish va kelajakda faoliyat natijalarini takomillashtirishga ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida qaralishi lozim.



**1-rasm. OTM o'qituvchisi kasbiy faoliyati modeli**

OTM o‘qituvchisining kasbiy faoliyat modeli mazmuni hamda hozirgi davr oliv ta’lim jarayonining xarakterli xususiyatlaridan kelib chiqib, professor-o‘qituvchilarning kasbiy pedagogik faoliyatini baholashda quyidagi mezonlar va ularga oid ko‘rsatkichlar orqali baholash mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega, ya’ni:

- qadriyatli mezonlar;
- akmeologik mezonlar;
- refleksiv mezonlar;
- talabalarning ta’lim muhitidan qoniqishi bilan bog‘liq mezonlar.

OTMdha professor-o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqishda ta’lim iste’molchisi bo‘lgan talabalar qoniqishiga ta’sir etuvchi 4 ta asosiy omillar inobatga olinishi maqsadga muvofiq:

- O‘qitish (o‘quv jarayonining tashkil etilishi va professor-o‘qituvchilarning bilim saviyasi va madaniyati, pedagogik mahorati, talabalarni qo‘llab-quvvatlashi, talabalar bilimini baholashga obyektiv yondashuvi) sifati;
- OTMning ta’lim muhti;
- OTMning moddiy-texnik bazasi;
- Talabalarning maqsad va tashabbuslari qo‘llab-quvvatlanishi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobni “**Oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini baholashning tashkiliy-diagnostik yo‘nalishlari**” deb nomlanadi. Mazkur bobda Oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatni diagnostik mazmuni, professor-o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini baholashning xorijiy tajribalar tahlili keltirilgan. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini baholashning pedagogik-psixologik muammolari tadqiq etilgan.

Pedagogika nazariyasi va amaliyotidan ma’lumki, ta’lim jarayonlarida tashxis qilish va pedagogik faoliyatni baholashni amalga oshirmsandan, ta’lim jarayonlarini optimallashtirish mumkin emas, ya’ni haqqoniy tashxis orqaligina pedagogik jarayonlarning real manzarasi, tabiatni va uni rivojlantirish imkoniyati yuzaga keladi. Oliy ta’lim muassasalarida o‘qituvchilar faoliyatini tashxis qilish va baholash orqali pedagogik faoliyatning mohiyati va uni takomillashtirish omillarini aniqlash, shuningdek, pedagogik jarayonlarning kompleks harakatini vizual tasavvur qilish mumkin.

O‘qituvchilarning faoliyatini tashxis qilish va baholashda, eng avvalo pedagogik faoliyatning tarkibiy qismlarini tizimlashtirish va tizimli tahlil asosida muhim omillarni aniqlash muhim hisoblanadi. Shundan kelib chiqib ta’kidlash lozimki, oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilarini faoliyatini baholash samaradorligi bevosita pedagogik faoliyatning tarkibiy qismlari, omillari va mezonlarini aniqlashga bog‘liq.

Ma’lumki, pedagogik faoliyat bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan komponentlar, omillar va shart-sharoitlardan iborat. Shunga asosan, mazkur bobda professor-o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik faoliyatini baholashning omillari, komponentlari hamda diagnostik mazmuni aniqlangan. Diagnostik mazmunni aniqlash bo‘yicha olib

borilgan tadqiqotlar asosida aniqlangan komponentlar, omillar va shart-sharoitlar hamda ularning o‘zaro munosabatidan oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilari kasbiy faoliyatini baholashning qadriyatli, akmeologik, refleksiv va talabaning qoniqishini belgilovchi mezonlar ishlab chiqilgan.

OTM faoliyatiga baho berishda akademik aspekt, ya’ni professor-o‘qituvchilarning sifat tarkibi va darajasi muhim ahamiyatga egadir. Akademik aspekt bilan talaba qoniqishi o‘rtasida kuchli statistik ahamiyatga ega bo‘lgan bog‘liqlik borligi soha olimlari tomonidan isbotlangan<sup>23</sup>. Mazkur tadqiqotlarda akademik aspekt va akademik bo‘lmagan aspektlarning talaba qoniqishiga va OTM obro‘siga ta’siri o‘rganilgan. Tadqiqot natijalarini akademik aspektni talabalar qoniqishiga statistik jihatdan ta’siri kuchli bo‘lgan ( $p\leq 0.000$ ), lekin OTM obro‘siga ta’siri sezilarli ( $p\leq 0.253$ ) darajada bo‘lmaganligini ko‘rsatadi. M.Moslehpoour akademik aspektning talaba qoniqishi orqali OTM obro‘siga ta’sirini o‘rganganda, natijalar boshqacha ko‘rinishga ega bo‘lgan, ya’ni akademik aspektning talaba qoniqishi orqali OTM obro‘siga ta’siri statistik jihatdan ahamiyatga ega ekanligini aniqlagan ( $p\leq 0.05$ ). Bu shuni anglatadiki, professor-o‘qituvchilarning bilim saviyasi va madaniyati yuqoriligi OTM obro‘sining yuqorilagini belgilamaydi. Balki o‘sha professor-o‘qituvchi bilim va madaniyatidan talabalarning qoniqishi ahamiyatli hisoblanadi. OTM faoliyatining mahsuli bu bitiruvchi kadrlardir. Sifatli kadr tayyorlash uchun professor-o‘qituvchining saviyasi yuqori darajada bo‘lishi kerak.

Xorijiy mamlakatlar ta’lim sohasidagi kadrlarni baholashga konseptual yondashuvlar Yu.S.Alferov, D.Badarcha, G.A.Bordovskiy, I.M.Kurdyumova, V.A.Matyuxin, L.I.Pisarev, T.A.Tartashvili, S.Yu.Trapisinning ishlarida to‘liq ochib berilgan, tahlil qilingan. AQSh va Yevropaning rivojlangan davlatlaridagi OTM o‘qituvchilarining faoliyatini baholashga yondashuvlar mamlakat ta’lim tizimining ichki mantig‘iga, oliy o‘quv muassasalarida qabul qilingan lavozim tuzilmasi asosidagi prinsiplarga, ishga qabul qilish sharoitlari va xizmatda o‘sish bo‘yicha professor-o‘qituvchilar tarkibi va o‘quv jarayonining sifatini ta’minlashga yo‘naltirilgan o‘qituvchilar faoliyatini baholash metodiga asoslangan.

Rivojlangan davlatlardagi OTMlarining professor-o‘qituvchilari faoliyatini baholash tajribasi tahliliga ko‘ra, o‘qitish darajasini baholashda talabalarning ta’lim natijasi sifati va ularning yutuqlariga ustuvorlik beriladi. Baholanadigan ushbu ko‘rsatkich fan o‘qituvchisi tomonidan o‘quv jarayonida qo‘yilgan vazifalar va maqsadlar bilan taqqoslanadi.

Oliy o‘quv muassasalarida o‘qituvchilar faoliyatini baholashga yondashuvlar quyidagilar asosigaquriladi:

- har qanday darajada ta’lim olish muvaffaqiyati o‘qituvchining qo‘lida bo‘ladi va ko‘p hollarda shaxsiy xarakteristikalarini va kasbiy mahorati bilan

<sup>23</sup> Moslehpoour M. Chau K.Y., Zheng J., Hanjani A. and Hoang M. “The mediating role of international student satisfaction in the influence of higher education service quality on institutional reputation in Taiwan”. Int. J. Eng. Bus. Manag., vol.12, no.100, pp.1-16, 2020; Kashif M., Sarifuddin S. and Ramayah T. “PAKSERV – measuring higher education service quality in a collectivist cultural context”, j, vol.27, no.3-4, 2016.

belgilanadi;

- baholash samaradorligi omili bo‘lib muayyan mezonlar va topshirilgan funksiyalar bajarilishiga nisbatan o‘qituvchilarga maslahat berish tizimining mavjudligi hisoblanadi;
- davriy ravishda amalga oshiriladigan o‘qituvchi tarkibining faoliyatini baholash o‘qituvchilik muhitida ma’naviy muhitni yaxshilashi va kuchli hamda samarali amaldagi tizimi shakllantirish imkonini berishi mumkin.


Professor-o‘qituvchilarning faoliyatini muntazam o‘rganish va tahlil qilib borish ta’lim sifati va samaradorligini oshirishning zaruriy shartidir, shuningdek talabalarni o‘qitishda yuqori natijalarga erishishda stimul bo‘ldi. Bunda har bir o‘qituvchining real imkoniyatlariga har tomonlama baho berish tizimi yaratilganda quyidagilarga imkon beradi:

- pedagogik mahoratni rivojlantirishning barcha sohalarida o‘qituvchi ehtiyojlarini to‘g‘ri hisobga olish;
- bilim, ko‘nikma va malakalarni xolis baholash;
- ijodiy faoliyatni rivojlantirish uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratish istiqbollarini aniqlash;
- butun jamoaning tarbiyaviy ishini takomillashtirish orqali har bir o‘qituvchining pedagogik mahoratini oshirish dasturini belgilab olish;
- ta’lim jarayonini tashkil etishda nafaqat kasbiy bilimlarni o‘zlashtirishda o‘zaro yordam muammosini, balki talabalar va professor-o‘qituvchilar muloqotida psixologik moslik jihatlarini ham hisobga olish.

Pedagogika nazariyasidan ma’lumki, ta’lim natijasi va samaradorligi eng avvalo, ta’lim oluvchilarning maqsadi va ehtiyojiga bog‘liq, ya’ni, talabaning ehtiyoji va talabi qanchalik yuqori bo‘lsa, o‘z-o‘zidan pedagogik jarayon hamda pedagogik faoliyatning samaradorligini oshirish zaruratini yuzaga keltiradi. Natijada ta’lim beruvchining kasbiy-pedagogik faoliyati auditorianing talabi asosida takomillashib boradi. Biz bu qonuniyatdan foydalanish maqsadida asosiy e’tiborimizni ta’lim oluvchilarning maqsadi hamda ta’lim olish jarayoniga nisbatan talablarini shakllantirishga qaratdik. Jumladan, filialning “web sayti”da har bir darsdan so‘ng professor-o‘qituvchining faoliyatini anonim baholash tizimini ishlab chiqdik.

Har bir dars mashg‘ulotidan so‘ng talabalarning filial “web sayti”dagi <https://samdukf.uz/anonim-sorovnama/> havola orqali professor-o‘qituvchilar faoliyatiga munosabat bildirishlari yo‘lga qo‘yildi. O‘quv yilining dastlabki davridan boshlab, muntazam ravishda pedagogik faoliyat samaradorligini belgilangan aspektlar bo‘yicha baholash yuzasidan so‘rovnama o‘tkazildi.

Anonim so‘rovnomani integratsiyalashgan kompyuter yordamida ishlab chiqish (ICAM), ya’ni modellashtirish bloklar (funksiyalar) va ular o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlashtirish imkoniyatini yaratadi. Bunday holda, har bir blok qat’iy belgilangan vazifani hal qilishi kerakligi lozim bo‘ladi. Quyida anonim so‘rovnama uchun IDEF (Integrated DEFinition) modelni keltiramiz.



2-rasm. Anonim so'rovnomanning IDEF modeli


Dissertatsiyaning “**Oliy ta’lim muassasalari professor-o’qituvchilarining kasbiy faoliyatini baholashning amaliy-texnologik tizimi**” deb nomlangan uchinchi bobida kompetensiyaviy yondashuv asosida professor-o’qituvchilarining kasbiy faoliyatini takomillashtirish strategiyasi, professor-o’qituvchilar faoliyatini kasbiy baholashda kompetent yondashuv mexanizmi aniqlangan. Oliy ta’lim muassasalarida professor-o’qituvchilarning kasbiy faoliyatini baholash metodologiyasi takomillashtirilgan.

Jahon miqyosidagi ilg‘or tajribali xorijiy OTMlar professor-o’qituvchilarining kasbiy faoliyatini baholash texnologiyasi kasbiy-pedagogik jarayonlar va natijalarini baholash amaliyoti tahlili borasida turlicha yondashuvlar mavjudliginiko‘rsatmoqda. Yevropa va AQShda oliy ta’lim sifatini aniqlash borasida akkreditatsiyalash va ichki baholash tizimlari jarayonlaridan foydalanish tajribalari asosida amalga oshirilayotgan bo‘lsa, bir qancha ilg‘or xorijiy mamlakatlar o‘z baholash tajribalaridan foydalanib kelayotganini ko‘rishimiz mumkin.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida oliy ta’lim muassasalarida professor-o‘qituvchining kasbiy faoliyatini takomillashtirish strategiyasi ta’lim sifati va pedagogik ish samaradorligini oshirishga yordam beradigan bir qator muhim jihatlarni o‘z ichiga oladi. Jumladan, oliy ta’lim muassasalarida professor-o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini takomillashtirish imkoniyatini yaratuvchi bir nechta asosiy yo’nalishlarni e’tiborga olish maqsadga muvofiq:

1. Doimiy ravishda o‘z-o‘zini takomillashtirish;
2. Jamoaviy ishni tashkil etish;
3. Professor-o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini baholash;
4. Innovatsion usullardan foydalanish;
5. Shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish;
6. Talabalarning ehtiyojlari va maqsadini aniqlash;
7. Ota-onalar bilan o‘zaro munosabatlar.


Shuningdek professor-o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatga motivatsiyasini shakllantirishga ta’sir ko’rsatuvchi omillar aniqlandi (3-rasm).



### 3-rasm. O‘qituvchi faoliyatini takomillashtirish omillari

Strategiyaning mohiyatidan kelib chiqib, oliy ta’lim muassasalarida professor-o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini takomillashtirish strategiyasining tuzilmasi ishlab chiqildi (4-rasm).


Bunda asosiy e’tibor professor-o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini baholashning mezon va ko’rsatkichlar hamda o‘qituvchining o‘z faoliyatini takomillashtirish ehtiyojiga ta’sir ko’rsatuvchi omillarga e’tibor qaratildi.



**4-rasm.Oliy ta’lim muassasalari professor-o’qituvchilari faoliyatini takomillashtirish strategiyasi.**

